

FUQAROLIK JAMIYATIDA HUQUQNING O'RNI VA AHAMIYATI

Ruziyeva Umida Xushmurod qizi

Toshkent shahar Olmazor tumani

133- maktabning huquq fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada fuqarolik jamiyatida huquqning o'rni va ahamiyati haqida yozilgan bo'lib, konstitutsiyamizda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga doir asosiy prinsiplarning mustahkamlanishi haqida ham so'z yuritilgan

Kalit so'zlar: *Konstitutsiyamiz, ustuvor vazifalar, jamoatchilik va fuqarolik nazorati, qonun hujjatlari, notijorat tashkilotlar, NNT, MDH, jamoat birlashmalari,*

Bugun oldimizga qo'yilgan asosiy maqsad va ustuvor vazifalar mamlakatimizni erkinlashtirish va modernizatsiya qilishda uzoqni ko'zlaydigan "Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyiliga asoslangan. Bu demokratik islohotlarimiz izchil va tadrijiy, bosqichma-bosqich hamda uzluksiz tizimli jarayon ekanining yana bir isbotidir.

Shu nuqtayi nazardan aytganda, yurtimizda fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bundan asosiy maqsad, avvalo, kishilarimiz ongiga demokratik qadriyatlar va ko'nikmalarni izchillik bilan singdirib borishdir.

O'z navbatida, Asosiy Qonunimizda alohida, XIII bob va 7 ta modda bevosita jamoat birlashmalarining huquq va majburiyatlariga bag'ishlaganini ta'kidlash joiz. Xususan, Konstitutsiyamizning 58-moddasida belgilanganidek, davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi.



Konstitutsiyamizda, shuningdek, nodavlat va notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomi mustahkamlangan bo‘lib, 56-moddada qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi.

Shu tariqa Konstitutsiyamizda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga doir asosiy prinsiplarning mustahkamlab qo‘yilgani barcha aholi qatlamlari manfaatlarini aks ettiradigan bunday tashkilotlar keng tarmoqlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Qayd etish lozimki, mazkur qonuniy mustahkamlanish va NNTning mustaqilligi MDH davlatlarining hech birida normaga kiritilmagan.

Mamlakatimizda bunday tashkilotlarning obro‘si oshib, mustahkamlanib borgani sari fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda jamoatchilik va fuqarolik nazorati instituti jamiyatning davlat bilan o‘zaro samarali aloqasini ta’minlash, odamlarning kayfiyatini, mamlakatda kechayotgan o‘zgarishlarga munosabatini aniqlashning muhim vositalaridan biriga aylanmoqda.

Shu ma’noda, fuqarolik institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirishga, fuqarolarning eng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan 250 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingani diqqat sazovordir.

Xususan, mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlarini fuqarolik jamiyati institutlari sifatida tobora taraqqiy ettirish, ularning mustaqil faoliyat yuritishini ta’minlash maqsadida “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Jamoat fondlari to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi, “Homiylik to‘g‘risida”gi qonunlar va boshqa huquqiy asoslarning shakllantirilganligi natijasida NNT o‘zlarida fuqarolik jamiyati



institutlariga xos belgilarni ifoda eta boshladilar.

Bugungi kunda yurtimizda o'n ikki mingga yaqin NNT faoliyat yuritadi, ularga mintaqaviy va mahalliy tashkilotlarni misol qilish mumkin. Eng yirik fuqarolik jamiyati institutlaridan biri — siyosiy partiyalardir. Hozirgi vaqtda 5 ta yetakchi siyosiy partiya Oliy Majlis va mahalliy Kengash deputatlari orqali davlatimizdagi siyosiy-ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda ishtirok etishmoqda.

Umuman aytganda, fuqarolik jamiyati — bu shunday ijtimoiy tuzumki, unda qonunlar ustuvorligi ta'minlanadi, inson huquq va erkinliklari qaror topadi, siyosiy partiyalar va institutlar, fikrlar xilma-xilligi kafolatlanadi, insonga uning iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy hayot shakllarini erkin tanlashi ifodalanadi. Shu bois, ularning har jihatdan taraqqiy etishi kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik jamiyati atamasi fuqarolik va fuqaro haqidagi tushunchalar tarkib topganidan keyingina paydo bo'lgan va shu tariqa fuqarolar majmui sifatida jamiyat tushunchasi yuzaga kelgan. Dastlabki davrlarda fuqarolik jamiyati bilan davlat o'rtasidagi farqlanish e'tirof etilmagan. Masalan Arastuning fikricha, davlat fuqarolar majmuidan, fuqarolik jamiyatidan boshqa narsa emas edi. Sen Simon esa, jamiyatning birdek nafrat bilan qaraydigan ikki dushmani bor, ular anarxiya (hokimiyatsizlik) va despotizm (zolimlik) dir, deya ta'kidlagandi. Amalda fuqarolik jamiyati ijtimoiy munosabatlarning shunday yetuklik holatidirki, unda yuqoridagi har ikki illat amalda mustasno qilinadi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy xususiyatlari iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy birlikda o'z ifodasini topadi. Bular iqtisodiy sohada nodavlat tashkilotlar, shirkatlar, ijara va aksiyadorlik jamoalari, uyushmalar, korporatsiyalarning mavjudligidir;

Ijtimoiy sohada- oila, partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlar, ish va yashash joylaridagi o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik fikrini aniqlash, shakllantirish va ifoda etishning madaniylashgan tartibotlari, ijtimoiy ixtiloflarni kuch ishlatmasdan, tazyiqsiz,



qonunlar doirasida hal qilish amaliyotining mavjudligidir;

Ma'naviy sohada- so'z, vijdon va fikr erkinligi, o'z fikrini ochiq bildira olishning real imkoniyatlari, ijodiy, ilmiy va boshqa uyushmalar mustaqilligining ham qonuniy, ham amaliy jihatlari ta'minlanganligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning xuquqiy kafolatlari T.O'zbekiston. 1992 yil.
- 2.Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. T. : O'zbekiston, 1997.28-bet.
- 3.Tojixonov U. Isthlolimizning xuquqiy negizi. T. 1994 yil.
- 4.Xuquqiy demokratik isloxotlar. T. O'zbekiston. 1997 yil.
- 5.Odilqoriev X.T. O'zbekiston respublikasida qonun chiqarish jarayoni.T.O'zbekiston. 1995 yil.
- 6.Djonkorov A.T.Xuquq normalari. T. IIV Akademiyasi 1994 yil.
7. Saidov A.,TojixonovU. Davlat va xuquq nazariyasi: T.2. Xuquq nazariyasi. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2001 y.
- 8.Saidov A.Tojixonov U. Davlat va xuquq asoslari. T. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2002 yil 30-33 bet.
- 9.Holmo'minov H.T. Davlat va xuquq nazariyasi. O'huv qo'llanmasi. T. 2000. - 11
10. Abdullayev M.I. Teoriya gosudarstva i prava: Uchebnik.-SPb.: Piter, 2003. -397 s.

